

**BOSHLANG’ICH TA’LIMDA BAHOLASH JARAYONINING AFZALLIKLARI VA TA’LIM
SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI, ADABIY-NUTQIY KOMPETENSIYALARNI
SHAKLLANTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA**

O’smanova Diloromxon Ziyodinovna

Andijon davlat pedagogika instituti, Tayanch doktoranti

Annotatsiya: Yosh avlodni mustaqil fikrlay oladigan, yangilik yarata oladigan qilib tarbiyalash har qanday davrning talabi bo’lib kelgan va davr talabi bo’lib qolada. Shundan kelib chiqqan holda O’zbekistondagi amalga oshirilayotgan ta’lim to’g’risidagi barcha qonun va qoidalar kelajak avlodni mustaqil fikrlaydigan va yangilik yarata oladigan qilib tarbiyalashga qaratilmoqda. O’qish fani misolida olsak, fanga oid “adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og’zaki bayon qilish, o’qish, fikrni yozma bayon qilish)” kabilar nafaqat pedagog uchun belgilangan va shakllantiriladigan tushuncha, balki muhim reja va maqsadlar yo’nalishi hisoblanadi. Maqolada yosh avlodni tarbiyalashda boshlang’ich ta’lim fanlari o’qituvchisi hamda ta’lim va jarayon qanday bo’lishi kerakligi, bilimlar poydevori boshlang’ich ta’lim ekanligi, o’quvchilarning bilimini to’g’ri aniqlash va baholash, ularning adabiy-nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish juda muhim ekanligi, xalqaro tadqiqotlarga tayyorlab borish ishlarini boshlang’ich ta’limdan boshlash zarurligi, hamda allomalarimizning muhim asarlari avlodlarga qay darajada kerak qo’llanma ekanligi mazkur maqolada yoritilgan.

Kalit so’zlar: Baholash, PISA, PIRLS, TIMSS, kompetensiyalar, pedagogik xatolar, mantiqiy fikrlash, mustaqil fikrlash, axborot, konstruktiv jarayon, interaktiv jarayon.

Kirish. O’zbek xalqining ulug’ allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy asarlarida yosh avlodga bilim berishning turli yo’llari va vositalari haqida tushunchalar berilgan bo’lib, ularni mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan qilib tarbiyalash xususida to’xtalib o’tgan.

O’zidan boshqalarga rahbarlik qilish, ularni baxt-saodatga erishuv darajasiga ko’tarish ham har kimning qo’lidan kelavermaydi. Kimda bironing baxt-saodatga erishtirish, zarur bo’lgan ish-harakatni bajara olishga qudratsiz bo’lsa bunday odam sira ham rahbar bo’la olmaydi.” Abu Nosir Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida[1] shunday so’zlar yozilgan. Demak, o’quvchilarni bilimli qilib tarbiyalaydigan o’qituvchi o’zi yetarli bilimga ega bo’lishi kerak. Shu bilan birgalikda boshlang’ich sinflarda o’quvchilarning savodxonligini, fanlarni o’zlashtirishga aloqador o’quv-biluv ko’nikma va malakalarini shakllantirish, o’quv dasturida ta’kidlab ko’rsatilganidek, bolalarni o’qigan asarlarining adabiy estetik xususiyatlarini chuqur idrok etish, ularni tasvirlangan voqea-hodisalar mag’zini chaqish, muayyan xulosalar chiqarishga tayyorlash bolalarda yuksak axloqiy sifatlarni va nafosat tuyg’usini tarbiyalashda hech bir fan ona tili va o’qish fani vazifasini bajara olmaydi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risidagi”gi 5712-son Farmonida[2] 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg’or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish, hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o’quvchilarning o’qish, matematika va tabiiy

fanlar yo'nalishidagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Bu esa o'quvchilarga bilimlarni berish bilan birgalikda, ularda mustaqillik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish ya'ni olgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliy qo'llay olishga tayyorlash ustuvor vazifa hisoblanadi.

Material va usullar. Jahon ta'lim jarayonida pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanib boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim o'zlashtirishini diagnostika qilish ham muhim jarayon hisoblanadi. Bu metodlarni qo'llashning nima afzal tomonlari bor? Buning natijasida qanday samarali xulosalarga erishish mumkin?

Boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarda yuqori natijalarga erishishlari uchun darslarni turli usullarda tashkil qilib borish har bir pedagogning zimmasiga katta mas'uliyatni yuklaydi. Shu bilan birgalikda o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatib borish, o'quvchilarni bergan javoblariga ham e'tiborli bo'lish kerakligini anglatadi.

Fanga oid "adabiy-nutqiy kompetensiyalar (*tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish*)"ni o'quvchida shakllantirish juda ko'p afzalliklarga ega. Eng asosiysi o'quvchi hayotiy vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Mashg'ulot jarayonidagi o'quvchilar faoliyatini baholash esa, har qanday holatga real qarashni shakllantiradi.

Ta'lim jarayonining boshqaruvchisi o'quvchilar bilan savol-javoblarni olib borayotgan vaqtda, ular xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin bo'ladi. Shunday paytda "Xato gapirding", "Sizga 2", "Shunu ham bilmaysanmi?" kabi jummalarni ishlatmaslik kerak.[3] Aksincha, bola o'z fikrini bildirdimi, xato bo'lsa, "bir oz boshqacha fikringiz, o'ylab ko'ring" deb ularni yana fikrlashga undash maqsadga muvofiq. Bola xato qilib qo'yishdan, tanbeh eshitishda qo'rqib, loqayd o'quvchiga aylanib qoladi. Bu holat o'quvchilarni kreativ fikrlashga to'sqinlik qilishi aniqlangan.

O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga ya'ni, 4-sinfdan PIRLS matnini o'qish va tushunish darajasini baholashda, [4] TIMSS 4- va 8-sinflarda matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashda, hamda PISA 15 yoshli o'quvchilardan maktabni tugatgandan so'ng faol hayot pozitsiyasini egallashlariga imkon beradigan chuqur bilimga egalik darajasini baholashda yetarli ball to'play olishlari uchun o'qituvchi bolalar bilan ishlay olishi, ta'lim sifat va samaradorligini oshirish yo'lida tinmay izlanishi kerak bo'ladi. Shuning uchun 1-sinfdan boshlab har bir o'quvchining kreativ fikrlashga o'rgatib borish, har bir boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisining oldidagi dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Natija va muhokama. Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasining loyihasi (PIRLS baholash dasturi) o'qish ta'limini takomillashtirish uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi.[5] O'zbekistonda tizimni takomillashtirish rivojlantirish hamda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish, eng asosiysi sinfdagi o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish maqsadida fanlar bo'yicha savodxonligini PIRLS xalqaro baholash dasturidan foydalangan holda diagnostika va monitoring qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.[6] Bu tadqiqotlar anketa savollari hamda matritsalar yordamida yanada aniqlashtirilmoqda. Ya'ni o'quvchining tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish kabi tushunchalarini diagnostik savollar orqali aniqlash va tahlil qilish natijasida kerakli xulosalar berilmoqda.

Demak, testlar, nazorat savollariga nisbatan, bunday yondashuv o'quvchilarni nafaqat bilimni pragnostik baholaydi, balki, ta'lim jarayoni qay darajada ekanini ko'rsatib bera oladi. Bunday paytda faqatgina aqliy qobiliyatiningina emas balki, ruhiy holati ham inobatga olinadi, bu psixodiagnostikani taqozo qiladi.

Amaliy tadqiqotlarga ko'ra, 1-sinf o'qituvchisining 80% xarakteri xulq-atvori o'sha sinf o'quvchilariga o'tar ekan. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisi har tomonlama bilimga ega bo'lishi, o'quvchilarni komil inson qilib tarbiyalay olishi kerak. Negaki, rad etib bo'lmaydigan bir haqiqat bor – qilingan barcha sa'y-harakatlar oxir-oqibatda o'qituvchi mehnati orqali o'z natijasini o'quvchilarning yaxshi bilimi va ahloqida namoyon bo'ladi. Bu esa o'quvchida kompetensiyani shakllantirgandagina o'z natijasini beradi.

Kompetensiya — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Agar boshlang'ich sinfda o'qituvchi o'quvchini harflab o'qishga o'rgatib qo'ysa, o'quvchi yuqori sinfda ham harflab o'qiydi. Bu xatoni to'g'rilash juda qiyin bo'ladi. Chunki o'quvchi berilgan matnni harflab o'qishi natijasida matn mazmunini tushunishga qiynaladi. Voqelikni anglay olmaydi.

Demak, "Baxt – saodatga erishuv va tug'ma qobiliyatlarning rivojlanishi o'z-o'zidan bo'lavermaydi, balki bu masalada qandaydir bir muallim yoki rahbarga muhtojlik tug'iladi.

Shunga ko'ra, ona tili va o'qish savodxonligi darsi boshlang'ich ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Qolaversa boshqa predmet darslarni ham ona tili va o'qish savodxonligi fanisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Psixologlarning aniqlashicha, o'quvchilarni fanlarni o'zlashtirishi 200 ta omilga bog'liq ekan. Shundan eng muhimi o'qish malakasining egallanishi hisoblanadi.[7]

Afsuski, 2020-2021-o'quv yilida o'quvchining nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'sha yillari o'qitilgan predmet "o'qish" fani 2-, 3-, 4-sinflarda 3 soatga tushib qolgan edi.

O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyati sifatida qaralib kelinadi. Bu fanni ilmiy bilimlar, hayotiy haqiqatlar, tevarak-atrofdagi hodisalar bilan boyitgan holda o'quvchiga singdirish kutilgan natijani bera oladi. Bu esa barcha fanlarni o'zlashtirishga poydevor bo'ladi. Avval amal qilingan davlat ta'lim standartlarida o'qish fani barcha fanlarga asos etib belgilansada natija kutilganidek emas edi. Endilikda milliy o'quv dasturida aksincha, barcha fanlarni "o'qish" fani tarkibiga jamlagan holda tuzilganini ko'rish mumkin. Bu esa o'z navbatida xalqaro va xududiy bo'lib o'tadigan baholash jarayonlarida ijobiy natijalarni olib keladi.

Xulosa. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. O'qish savodxonligining bu ko'rinishi konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko'plab o'qish nazariyalarini aks ettiradi. Ya'ni o'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, o'z intellektida ma'no yaratadi, matn ustida mushohada qiladi, buning natijasida hayotiy vaziyatlarda olingan xulosalarini qo'llay olish qobiliyati namoyon bo'ladi.

Demak, xulosa shuki, boshlang'ich ta'lim bilimlar poydevori ekan. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlab borish uchun o'qituvchi bilimli bo'lishi, o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatishi, matn ustida ishlay olishga o'rgatmog'i, baholashning samarali va qulay usullaridan foydalanishi kerak. O'quvchini to'g'ri baholash va aniq yo'lni topib berish ta'limning eng muhim jihatlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. "Fozil odamlar shahri". Nodir va dono fikrlar. —Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. — 160 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Pf-5712-sonli Farmoni.
3. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent. 2011. 12-bet.
4. ↑ PIRLS xalqaro baholash dasturi
5. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2019. 6-10-betlar.
6. Andrés Christiansen, Rianne Janssen, Educational Assessment, Evaluation and Accountability. Volume 36, Issue 3, Pages 337 – 363 August 2024.
7. PIRLS 2016 International Database, <https://www.iea.nl/data-tools/repository/pirls>, (assessed on January 21st, 2022).